

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**PEDAGOGIK TA‘LIM: XALQARO
TAJRIBA VA INNOVATSION
YONDASHUVLAR**

*mavzusidagi an‘anaviy ilmiy-amaliy anjuman
materiallari*

(Buxoro, 2022-yil 6-aprel)

Buxoro – 2022



Pedagogik ta'lim: xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar [Matn]:
maqola va tezislar to'plami.

MAS'UL MUHARRIR:

Tosheva D.A. – f.f.f.d. (PhD)

TAQRIZCHILAR:

Saidova M.J. – p.f.f.d. (PhD), dots.

Tosheva N.T. – p.f.f.d. (PhD), dots.

TO'PLOVCHI VA NASHRGA TAYYORLOVCHILAR:

Saidova R.A. – f.f.f.d (PhD)

Sobirova D.R. – o'qituvchi

Yoqubova Sh.Y. – o'qituvchi

Murodova G.A. – o'qituvchi

Yoqubova Sh.Y. – o'qituvchi

Ushbu an'anaviy ilmiy-amaliy anjumanning ilmiy maqola va tezislari to'plamida ilm-fan va ta'lim tizimidagi keng ko'lamlı islohotlar, pedagogik ta'limda xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar borasida fikr va tajriba almashish, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish, tadqiq etishga qaratilgan takliflarni qamrab oluvchi ilmiy, amaliy hamda uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar, bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

© BuxDU PEDAGOGIKA INSTITUTI



“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONINING MATNIY XUSUSIYATLARI

Amonova Zilola Qodirovna

Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.f.d.

Murodova Gulchehra Azamat qizi

Buxoro davlat universitetining

Pedagogika instituti o‘qituvchisi.

O‘zbek mumtoz adabiyotini chuqur o‘rganish va tahlil qilishda qo‘lyozma va toshbosma manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Alisher Navoiy adabiy merosi qo‘lyozmalarining topilishi ijodkor asarlarini yanada izchil o‘rganishni taqozo qilmoqda. Alisher Navoiy asarlari uzoq davrlar mobaynida xattot va kotiblar tomonidan ko‘chirilib, avloddan avlodga yetkazilgan bo‘lsa, keyinchalik litografik usulda yanada ommalashdi. Ulug‘ shoirning asrlar davomida eng ko‘p tarqalgan asari shubhasiz, “Xamsa” bo‘lib, uning yaxlit bir kitob holida nashr qilinishi hamda mukammal matnning yaratilishi Porso Shamsiyev nomi bilan bog‘liq. Porso Shamsiyev yaratgan ilmiy-tanqidiy matn asosida “Hayrat ul-abror” dostoni ham bir necha bor nashr qilindi. Doston matni Alisher Navoiy XV tomlik asarlar to‘plamining 6-tomidan, XX tomlik Mukammal asarlar to‘plamining 7-tomidan, X jildlik To‘la asarlar to‘plamining 6-jildidan o‘rin olgan. Ammo yuqoridagi nashrlarni qiyoslash davomida ma’naviy tafovut va orfografik xatolar ham ko‘zga tashlanadi. Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarining barchasi uchun xos xususiyatlardan biri, ularning an’anaviy kirish boblar bilan boshlanganidir. “Hayrat ul-abror” dostoni boshlanmasida ham basmala, hamd, munojot bilan bir qatorda, besh na’t, so‘z ta’rifi, ko‘ngil tavsifi keltirilgan boblar ham uchraydi. Quyida ular doston nashrlari bilan o‘zaro qiyoslanib, farqli xususiyatlari tahlilga tortilgan.

Zoviyayi **jismg‘a** har zotdin,



Ruh yoqib sham' bu mishkotdin.⁵

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ta'rifi keltirilgan yuqoridagi misra Mukammal asarlar to'plamidan o'rin olgan doston matnida quyidagidek berilgan:

Zoviyayi **hashmg'a** har zotdin,
Ruh yoqib sham' bu mishkotdin.⁶

Yuqoridagi so'zlarning qay biri to'g'ri ekanligini aniqlashdan oldin bayt mazmuniga va har ikkala so'zning ma'nosiga e'tibor qaratish lozim. Bayt mazmuni quyidagicha: Jism ya'ni tana qismlariga yig'ilgan har narsaning asl Zotidan namunalar joylashtirilgan tokchaga ruh sham yoqdi. Bu yerda "jism" so'zi tana ma'nosida qo'llangan. "Hashm" esa lug'atlarda uchramaydi. Misralarda so'zlarning turli xil o'qilganiga sabab qilib so'zlarning shakl jihatdan bir-biriga o'xshash ekanligini korsatish mumkin. Doston ilmiy-tanqidiy matnida ham bu so'z **جسم غه** tarzida qo'llangan.

Quyidagi misrada ham so'z qo'llash bilan bog'liq har xillik kuzatiladi:

"Ho"i muhabbat **sanga** –o'qdur nasib,
Kim seni haq dedi o'ziga habib.⁷

Birinchi misradagi "sanga" so'zi To'la asarlar to'plamidan o'rin olgan doston matnida "**anga**" tarzida keltirilgan. Bir qaraganda so'zlarning har ikkalasi ham bayt mazmuniga to'g'ri keladi. Ammo ikkinchi misrada "seni" olmoshi qo'llangan paytda birinchi misrada "sanga" so'zini qo'llash o'rinli bo'ladi. Bayt mazmuni quyidagicha: "Ho"si (Muhammad (s.a.v.)dagi "he" harfi nazarda tutilgan.) senga muhabbat nasib bo'lganini anglatib, Alloh seni o'ziga habib dedi. Asar ilmiy-tanqidiy matnida ham bu so'z "sanga" tarzida qo'llanilgan.

Shohid etib chehra bu ko'zgu anga,
Ul ne qilib, ko'rguzubon bu anga.⁸

⁵ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 6-jild. Toshkent. 2012. 26-bet.

⁶ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 7 том. – Тошкент. "Фан". 1991. 33 б.

⁷ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 7 том. – Тошкент. "Фан". 1991. 33 б.

⁸ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 7 том. – Тошкент. "Фан". 1991. 34б.



Yuqoridagi misra X tomlik To‘la asarlar to‘plamidan o‘rin olgan doston matnida quyidagicha keltirilgan:

Shohid ochib chehra bu ko‘zgu anga,
Ul ne qilib, ko‘rguzubon bu anga.⁹

Misralardagi turli xillikni yuzaga keltirgan so‘zlar “shohid etib” va “shohid ochib”dir. Lug‘atlarda “shohid” so‘zining “guvoh” bilan bir qatorda, “go‘zal, dilbar” ma’nolari ham uchraydi. Ushbu baytni tahlil qilish davomida yuqoridagi baytlarga ham murojaat qilamiz. Yuqoridagi bayt mazmuni quyidagicha: Alloh yuzida nima yashiringan bo‘lsa, ularning hammasi habibi yuzida ham namoyon bo‘ladi. Uning chehrasi go‘zal bo‘lib, bu ko‘zgudir. U nimaki qilsa ko‘zgu unga ko‘rsatadi.

Kufr biyik **tog‘ig‘a** solib shikast,
Yerga bo‘lub past butu butparast.¹⁰

Yuqoridagi misradagi “tog‘ig‘a” so‘zi To‘la asarlar to‘plamidagi doston matnida “**toqig‘a**” tarzida tuzatilgan. Bayt mazmunini sharhlash davomida bu tuzatish asosli ekanligiga guvoh bo‘lamiz. “Toq” so‘zi “gumbaz, mehrob va tokchalarning tepasidagi qayrilma qismi” ma’nolarida qo‘llaniladi. Baytdan kofirlik buyuklik toqiga shikast yetkazgan bo‘lib, shunda butlar va butparastlar ham yerga tiz cho‘kkan edi degan ma’no anglashiladi. Birinchi misrada “toqig‘a” so‘zining o‘rinli qo‘llanilganiga sabab qilib, keyingi misrada “yer” so‘zining qo‘llanilganligini ko‘rsatish mumkin. Shoir bu misrada “toq” va “yer” so‘zlarini qo‘llash orqali tazod san’atining yorqin namunasini yaratgan.

Zoting edi **javhari** ulviy najod,
Tutmadi yer soyasi birla savod.¹¹

Yuqoridagi bayt To‘la asarlar to‘plamidan o‘rin olgan doston matnida quyidagicha keltirilgan:

Zoting edi **gavhari** ulviy najod,

⁹ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 6-jild. Toshkent. 2012. 27-bet.

¹⁰ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 7 том. – Тошкент. “Фан”. 1991. 356.

¹¹ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 7 том. – Тошкент. “Фан”. 1991. 386.



Tutmadi yer soyasi birla savod.¹²
 Kim yuzin **ayblab** qaro g‘amnok erur,
 Shaqqi emaskim, yoqosi chok erur.¹³

Yuqoridagi misra To‘la asarlar to‘plamidan o‘rin olgan doston matnida quyidagidek yozilgan:

Kim yuzin **aylab** qaro g‘amnok erur,
 Shaqqi emaskim, yoqosi chok erur.¹⁴

Bu yerda turli xil yozilgan so‘zlar “ayblab” va “aylab” so‘zlarigina emas, balki har ikkala nashrda ham bir xilda yozilgan “shaqqi” so‘zi hamdir. Bu so‘z ilmiy-tanqidiy matnda “shaqqiy” tarzida yozilgan. Agar bu so‘z “shaqqi” bo‘lganida “qof” harfida tashdid belgisi qo‘llanilgan bo‘lar edi. Birinchi misrada qo‘llangan “ayblab” so‘zi ham ilmiy-tanqidiy matnda “ابلا ب” tarzida yozilgan. Baytda so‘zlarning qay biri o‘rinli foydalanilganinini bilish uchun bayt mazmuniga ham e‘tibor qaratish lozim: Kim yuzini qora qilib g‘amda ekan, u baxtsiz , omadsiz emas, balki yoqasi chokdir.

Tutmog‘oning andin edi xomani,
 Kim ul etibdur qaro ko‘p nomani.¹⁵

Yuqoridagi bayt Mukammal asarlar to‘plamidan o‘rin olgan doston matnida **”tutmog‘ining”** tarzida qo‘llangan. Bu o‘rinda, ma’no “qalamni ushlashiga, qo‘lga olishiga sabab” tarzida anglashiladi. To‘la asarlar to‘plamidagi asar matni va dostonning ilmiy-tanqidiy matnida esa bu aksincha, “tutmog‘oning” tarzida yozilgan. Ya’nikim: Qalamni qo‘lga olmasligingning sababi shundaki, bu qalam ko‘p taqdirlarni qora qilgan edi mazmuni anglashiladi. Bularning qay biri asosli ekanligini ushbu misralardan oldingi o‘rinlarni kuzatish orqali ham aniqlash mumkin. Dostonning yuqoridagi o‘rinlarida shunday bir bayt keltirilgan:

O‘pmadi ilgingni chu nolai qalam,

¹² Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 6-jild. Toshkent. 2012. 31-bet.

¹³ АлишерНавоий. Мукамал асарлар тўплами. 7 том. – Тошкент. “Фан”.1991. 396.

¹⁴ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 6-jild. Toshkent. 2012. 31-bet.

¹⁵ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 6-jild. Toshkent. 2012. 31-bet.



Motamiy aylabtur oni bu alam.¹⁶

Bu misralarni kuzatish davomida esa baytda “tutmog‘oning” so‘zi o‘rinli qo‘llanganiga guvoh bo‘lamiz.

Xasta Navoiy sori nazzora qil,

Kufr **anoniyatig‘a** chora qil.¹⁷

Ikkinchi misra tarkibida kelgan “anoniyat” so‘zi Mukammal asarlar to‘plamidan o‘rin olgan doston matnida **“inoniyat”** tarzida qo‘llangan. “Anoniyat” so‘zining “manmanlik, takabburlik” ma‘nolari bor bo‘lgan holda “inoniyat” so‘zi lug‘atlarda uchramaydi. Bu misra uchinchi na‘tning xulosa qismida keltirilgan bo‘lib, xasta Navoiyni nazaringdan chetda tutmagaysan, undagi kufr va manmanlikka biror chora qil mazmuni kelib chiqadi.

Makkani chun qildi **judo** dayrdin,

Tig‘ suyi birla yudi g‘ayrdin.¹⁸

Ushbu misra tarkibida qo‘llangan “judo” so‘zi Mukammal asarlar to‘plamidagi doston matnida **“juda”** tarzida ifodalangan. Bu so‘zlarning qay biri bayt mazmuniga mos kelishini uni sharhlash orqali aniqlash mumkin. Bayt mazmuni quyidagicha: U (Umar) Makkani butxonalardan ajratdi. Qilichining suvi bilan butparastlardan tozaladi. Ushbu mazmunda “judo” so‘zini qo‘llash bayt mazmunini ochib berishga xizmat qiladi.

Vasl xayolidin etib ko‘ngli **xush**,

Bahrdek ul jo‘sh ila aylab xurush.¹⁹

Birinchi misra tarkibida kelgan “xush” so‘zi To‘la asarlar to‘plamidagi doston matni va asar tanqidiy matnida **“jo‘sh”** tarzida ifodalangan. Bir qaraganda “xush” so‘zi ham bayt mazmuniga mos keladi. Ammo ikkinchi misrada “ul jo‘sh” ta‘kidining qo‘llangani birinchi misrada ham “jo‘sh” so‘zining bo‘lishini taqozo

¹⁶ АлишерНавоий. Мукаммал асарлар тўплами. 7 том. – Тошкент. “Фан”. 1991. 396.

¹⁷ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 6-jild. Toshkent. 2012. 32-bet.

¹⁸ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 6-jild. Toshkent. 2012. 34-bet.

¹⁹ АлишерНавоий. Мукаммал асарлар тўплами. 7 том. – Тошкент. “Фан”. 1991. 456.



etadi. Shunda bayt mazmuni quyidagicha tahlil qilinadi: Visol xayolidan ko'ngli shunday jo'sh urdiki, u jo'sh urishi xuddiki dengizning hayqirishidek edi.

Nashrlarda so'zlar o'rni o'zgargan holda ham uchraydi.

Qolmadi yo'lida chun aslo makon,

Qildi makon bodiyai lomakon.²⁰

Ushbu misra X tomlik To'la asarlar to'plamining 6-jildi va ilmiy-tanqidiy matnda quyidagidek keltirilgan:

Qolmadi chun yo'lida aslo makon,

Qildi makon bodiyai lomakon.²¹

“Hayrat ul-abror” dostonini tahlil qilish davomida asarning so'z ta'rifi bilan bog'liq quyidagi baytlarida nashriy tafovutlarga duch kelamiz:

Gar xud erur xanjari po'lod til,

Suftidag'i injulari so'zni bil²²

Agar til bamisoli bir po'lat xanjar bo'lsa, so'z unga qadalgan injulardir mazmunidagi ushbu misra XX jildlik Mukammal asarlar to'plamidan o'rin olgan doston matnda quyidagidek keltirilgan:

Gar xud erur xanjari po'lod til,

Sufti dog'i injulari so'zni bil.²³

Nashrlardagi har xillikni yuzaga keltirgan so'z “suftidag'i” bo'lib, bu xatolik To'la asarlar to'plamidagi doston matnda “sufti dog'i” tarzida tuzatilgan. Asarning ilmiy-tanqidiy matnda ham ushbu so'z “sufti dog'i” tarzida keltirilgan. Agar bu so'z “suftidag'i” bo'lganda tanqidiy matnda “dol” harfidan so'ng “alif” yozilmagan bo'lar edi.

Bois o'lub shah so'zi bedodg'a,

Tuhmat o'lub **o'rtag'a** jallodg'a²⁴

²⁰ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 7 том. – Тошкент. “Фан”. 1991. 476.

²¹ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 6-jild. Toshkent. 2012. 38-bet.

²² Алишер Навоий. XV томлик асарлар тўплами. 6 том. – Тошкент. “Бадий адабиёт”. 1965. 156.

²³ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 7 том. – Тошкент. “Фан”. 1991. 586.

²⁴ Алишер Навоий. XV томлик асарлар тўплами. 6 том. – Тошкент. “Бадий адабиёт”. 1965. 156.



Yuqoridagi baytdagi “o‘rtag‘a” so‘zi Mukammal asarlar to‘plami va To‘la asarlar to‘plamidagi doston matnida **”o‘rtada”** tarzida ifodalangan. Bayt mazmunini sharhlashda ham albatta bu tuzatish o‘rinli ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Asar ilmiy-tanqidiy matnida ham bu so‘z “o‘rtada” holida kelgan.

Borchasidin **haz** etar ahli uqul,
Gar xud uzoq cheksa bo‘lurlar malul²⁵

Yuqoridagi baytda keltirilgan “haz” so‘zi XV tomlik asarlar to‘plamida **“hazl”** tarzida ifodalangan. Ularning qay biri bayt mazmuniga mos kelishini misralarni sharhlash orqali bilish mumkin. Lug‘atlarda “haz” so‘zi “huzur-halovat, lazzatlanish”, “hazl” esa “hazil qilmoq, oriq bo‘lmoq” ma’nolarda qo‘llanadi. Ushbu baytni to‘laligicha sharhlash uchun oldingi misralarga ham murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. “Bazmda har qanday sozanda dilkash kuylarni ijro etib, kuyda qancha yaxshi takrorlar, mashqda qancha yaxshi naqarotlar bo‘lmasin, ularning barchasidan tushungan odamlar, lazzatlanadi, qanoatlanadi. Agar kuy ijrosi cho‘zilib ketsa, ularga ham malol keladi”. Shunday ekan, baytda “haz” so‘zining qo‘llanilishi o‘rinli bo‘ladi.

Suvg‘acha xoro bila **bunyod anga**,
Ko‘kka degin porai **po‘lod anga**²⁶.

Ushbu bayt Mukammal asarlar to‘plami va To‘la asarlar to‘plamidagi doston matnida quyidagidek keltirilgan:

Suvg‘acha xoro bila **bunyod etib**,
Ko‘kka degin porai **po‘lod etib**.²⁷

Shoir o‘z “Xamsa”sining suvgacha bo‘lgan qismi toshdan, ko‘kkacha ko‘tarilgan qismi po‘lat bo‘laklaridan bo‘lishini istab yozgan ushbu misrada “anga”so‘zini qo‘llash o‘rinli bo‘ladi. Chunki, shoir “anga” so‘zi orqali “Xamsa”ga murojaat qilyapti. Qolaversa, asar tanqidiy matnida ham bu so‘z “anga” tarzida ifodalangan.

²⁵ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 7 том. – Тошкент. “Фан”. 1991. 60б.

²⁶ Алишер Навоий. XV томлик асарлар тўплами. 6 том. – Тошкент. “Бадий адабиёт”. 1965. 22б.

²⁷ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 6-jild. Toshkent. 2012. 55-bet.



Ma'nini ul xayl parizod etib,
Jonlarin ul xavfdin ozod etib²⁸

Yuqoridagi misra XV tomlik asarlar to'plami va To'la asarlar to'plamidan o'rin olgan doston matnida quyidagidek keltirilgan:

Ma'mani ul xayli parizod etib,
Jonlarin ul xavfdin ozod etib²⁹

Ushbu misrada turli xil ifodalangan so'zlar "ma'nini" va "ma'mani" bo'lib, ularni lug'atdan foydalanib, ma'nosini izohlaymiz. "Ma'ni" – ma'no, mazmun degan ma'nolarda qo'llansa, "ma'man" – omonlik joyi, qo'rqinchsiz, tinch joy ma'nolarida qo'llanadi. Shunday ekan, bayt mazmuni "ma'ni" so'zi orqali ayonlashmaydi. Baytning to'liq sharhi quyidagicha: "U yer parizodlar uchun qo'rqinchsiz tinch joy bo'lib, ularning joni har qanday xavfdan xoli bo'lsin".

Tikmak uchun jismu uchurmoqqa bosh,
Anda qilib ta'biya ko'p o'qu tosh.³⁰

Yuqoridagi misra tarkibida kelgan "tikmak" so'zi To'la asarlar to'plamida "tegmak" tarzida ifodalangan. Bunday turli xillikning yuzaga kelishiga sabab qilib eski o'zbek yozuvida "kof" va "gof" harflari birgina "kof" orqali ifodalanganidir. Shu sabab bir matnshunos buni "tikmak", boshqa biri esa "tegmak" tarzida o'qigan. Endi so'zlarning faqat shakliy jihatiga e'tibor qaratmay, uning ma'nosiga ham yuzlanamiz: "Tegmak" so'zi barchamizga ma'lum bo'lgan tegmoq ma'nosida qo'llanadi. "Tikmak" so'zining "tikmoq, garovga qo'ymoq, sanchmoq" ma'nolari bor. Bayt mazmuni esa quyidagicha: "Yovning badaniga sanchib, uni o'ldirish uchun u yerga ko'p o'q-u tosh to'playman". Shunday ekan, "tikmak" so'zi bayt mazmunini ochib berishga xizmat qiladi.

Dostonning ko'ngul ta'rifi bilan bog'liq baytlarida ham nashriy tafovutlar ko'zga tashlanadi. Alisher Navoiy XV tomlik asarlar to'plamidagi dostonning quyidagi baytiga e'tibor qaratsak:

²⁸ Аlisher Navoiy. Мукаммал асарлар тўплами. 7 том. – Тошкент. "Фан". 1991. 666

²⁹ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 6-jild. Toshkent. 2012. 54-bet.

³⁰ Аlisher Navoiy. Мукаммал асарлар тўплами. 7 том. – Тошкент. "Фан". 1991. 666.



Ham oni dajjol topib, ham nabi,
Iyso ila tengmu bo‘lur markabi?³¹

Ammo xuddi shu bayt XX tomlik Mukammal asarlar to‘plamidagi doston matnida:

Ham oni dajjol topib, ham nabi,
Iysi bila tengmu bo‘lur markabi?³²

To‘la asarlar to‘plamidagi doston matnida esa:

Ham oni dajjol topib, ham nabi,
Iso bila tengmu bo‘lur markabi?³³

tarzida qo‘llangan. Ushbu baytda ko‘ngul g‘unchasi dajjol ya‘nikim, yaramas bir mahluqda ham, payg‘ambarda ham bor, desak, Isoni uning eshagi bilan tenglashtirib qo‘ygan bo‘lamiz degan ma‘no anglashiladi. Asar ilmiy-tanqidiy matnida esa bu so‘z “Iso” va “ila” shaklida qo‘llangan.

Gar ko‘rubon chobuki **siymin tane**,
 Xandai shirin bila sho‘r afgane.³⁴

Yuqoridagi misra asarning keyingi nashrlarida o‘zgarishga uchragan holda keltirilgan:

Gar ko‘rubon chobuki **simintane**,
 Xandai shirin bila sho‘rafkane.³⁵

Bu yerda har xil yozilgan so‘zlar “siymintane”, “simintane” bo‘lib, lug‘atlarda “simintane” hech qanday ma‘no bildirmaydi. Kumushday oq ma‘nosida “siymintane” qo‘llanadi. Nashrlarda bunday turli xillik yuzaga kelishiga sabab qilib, asar ilmiy-tanqidiy matnida “i” va “y” tovushlari birga kelganda birgina u bilan yozilganini ko‘rsatish mumkin.

Sokin o‘lub o‘tda samandar kibi,
G‘o‘ta urub suv aro gavhar kibi.³⁶

³¹ Алишер Навоий. XV томлик асарлар тўплами. 6 том. – Тошкент. “Бадий адабиёт”. 1965. 256.

³² Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 7 том. – Тошкент. “Фан”. 1991. 736.

³³ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 6-jild. Toshkent. 2012. 61-bet.

³⁴ Алишер Навоий. XV томлик асарлар тўплами. 6 том. – Тошкент. “Бадий адабиёт”. 1965. 266.

³⁵ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 6-jild. Toshkent. 2012. 63-bet.



Yuqoridagi bayt tarkibida kelgan “g‘o‘ta” so‘zi Alisher Navoiy XV tomlik asarlar to‘plami va Mukammal asarlar to‘plamidan o‘rin olgan doston matnida “g‘o‘tta” tarzida yozilgan. Asar ilmiy-tanqidiy matnini kuzatganimizda ham bu so‘z “g‘o‘ta” tarzida yozilganiga guvoh bo‘lamiz.

Asarning na‘t, so‘z ta‘rifi, ko‘ngil tavsifi bilan bog‘liq boblarini tahlil qilish davomida, ba‘zi o‘rinlarda ushbu nashrlardagi tafovutlarni kuzatishimiz mumkin. Ularning yuzaga kelishiga sabab yozuvda nuqtalarning kam yoki ortiqcha ifodalanganligi, harflarning shakliy o‘xshashligi va unlilar yozilmaganligidadir. Ularni matn mazmuni, vazn xususiyatlariga qarab tahlil qilsak, ijodkor asarlarida aytilgan fikr yanada ayonlashadi va uning nasriy bayonlari ham mukammal bo‘lishi ta‘minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 6-jild. Toshkent. 2012.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 7 том. – Тошкент. “Фан”. 1991.
3. Алишер Навоий. XV томлик асарлар тўплами. 6 том. – Тошкент. “Бадий адабиёт”. 1965.

“QUR’ONI KARIM” – BOQIRG‘ON HIKMATLARINING MANBASII SIFATIDA

Zilola Amonova

BuxDU dotsenti, f.f.d.

Shahlola Safarova

*BuxDU, Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
yo‘nalishi 2-bosqich magistranti.*

Ma‘lumki, Qur‘oni Karim Alloh taolo tomonidan Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga 23 yil mobaynida sura, oyat tarzida elchi farishta – Jabroil alayhissalom orqali ilohiy vahiy sifatida, arab tilida, og‘zaki nozil qilingan. Islom dini ta‘limotining asosiy manbalari (Qur‘on, Sunnat, Ijmo, Qiyos) ning

³⁶ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 6-jild. Toshkent. 2012. 63-bet.



технологияларнинг жорий этилиши таълим-тарбия жараёнини юксак савияда ривожланиши ва ўқувчиларнинг замон талабларига жавоб бера оладиган билим, кўникма ва малакалар билан шаклланишига улкан кўмак беради. Зеро, президентимиз Ш.Мирзиёев таъкидлаганларидек: “Бугунги ёш авлод эртага халққа айланади”. Демак у халққа айланар экан ўзбек халқи яна яшашда давом этади. Ўзбекистоннинг тақдири эса мана шундай халққа айланган ёш авлодларнинг қўлида.

MUNDARIJA

I SHO‘BA.		
TABI‘IY VA GUMANITAR FANLAR TADQIQI MUAMMOLARI VA INNOVATSION G‘OYALAR TIZIMINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI		
Daminov M. I.	ZAMONAVIY TA‘LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	3
Xamidov O. X.	TA‘LIMDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH GERMANIYA TA‘LIM TIZIMI	5
Huseynova A. A.	XOTIN-QIZLARGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR XUSUSIDA	8
Muxtorov E. M.		11
Raximov Sh. A.	LUG‘ATLAR – XALQ XAZINASI	13
Ikramov A. A.	DAVLAT TILIGA E‘TIBOR	15
Amonova Z.Q. Murodova G.	“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONINING MATNIY XUSUSIYATLARI	18
Amonova Z. Q. Safarova Sh.	“QUR‘ONI KARIM” – BOQIRG‘ON HIKMATLARINING MANBASI SIFATIDA	27
Tosheva D.A.	MAQOLLARDA XALQ MILLIY QADRIYATLARINING AKS ETISHI	34
Murtozayev Sh. B.	GLOBALLASHUV JARAYONIDA	43

